**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRINING BUYRUG‘I**

**2026-yil “ 20 ” iyul** **188-son** ***(Ichb)*** **Toshkent viloyati**

# Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalari tuzilmasiga o‘zgartirish kiritish hamda shtat birliklarini taqsimlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 6-dekabrdagi PF-243-son, ““Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida” 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son, “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, fitosanitariya va veterinariya sohalarida yagona davlat boshqaruvi va nazorat tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 12-maydagi PF-84-son va “Sanoat usulidagi intensiv mevali bog‘lar barpo etish va eskirgan bog‘larni yangilashni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 9-iyundagi PF-108-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2026-yil 21-apreldagi PQ-154-son (xdfu) va “Chorvachilik tarmog‘i va yaylov xo‘jaligini zamonaviy boshqaruv tizimi va yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 12-maydagi PQ-179-son qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash yagona tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2026-yil 25-iyundagi 328-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda sohada boshqaruv samaradorligini yanada oshirish maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-maydagi PF-84-son Farmoni 3-ilovasiga muvofiq Qishloq xo‘jaligi vazirligiga Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan 247 ta boshqaruv xodimlari shtat birliklari ajratilganligi va shundan:

- 10 ta shtat birligi Agrar sohada to‘lovlar agentligiga ajratilishi;
- 13 ta shtat birligi farmonning 2-ilovasi 2.2.-qismiga muvofiq vazirlik tizimiga o‘tkazilgan “Biosifat” respublika markaziga ajratilishi;
- 1 ta shtat birligi farmonning 3-bandiga muvofiq tashkil etilgan Qishloq xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari - Chorvachilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish agentligi direktori lavozimiga ajratilishi;

- 52 ta shtat birligi 2026-yil 9-iyundagi PF-108-son Farmonning 15-bandiga muvofiq Agrosanoatni rivojlantirish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi Sanoatlashgan intensiv bog‘ va uzumzorlarni rivojlantirish bo‘yicha loyiha ofislarini tashkil etish uchun ajratilishi;

- 5 ta shtat birligi 2024-yil 20-iyundagi PQ-227-son qarorga muvofiq “Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisiga ajratilishi inobatga olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrdagi PF-243-son Farmoni 3-ilovasi, 1.1-bandiga muvofiq boshqaruv samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan vazirlikning tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish belgilanganligi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni 5-ilovasi, 8-bandiga muvofiq vazirning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosari lavozimini joriy etish belgilanganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 21-apreldagi PQ-154-son (xdfu) qarorining 15.b.-bandiga muvofiq Qishloq xo‘jaligi vazirligida “Grantlarni jalb qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish” bo‘limi tashkil etilishi belgilanganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 25-iyundagi 328-son qarori 3-bandiga muvofiq vazirlik markaziy apparati va hududiy bo‘linmalarida Tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash yagona tizimi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishga mas’ul mutaxassislar shtat lavozimlari joriy etilishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

3. Yuqorida keltirilgan qonunchilik hujjatlari bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish va sohada boshqaruv samaradorligini yanada oshirish maqsadida vazirlik majmualarining murojaatlarini inobatga olib, vazirlik markaziy apparati hamda hududiy boshqarmalarining tuzilmalari quyidagi ilovalarga muvofiq tasdiqlansin:

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahar Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining tuzilmasi 4-ilovaga muvofiq;

Tumanlar (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limlarining namunaviy tuzilmasi 5-ilovaga muvofiq;

4. Qishloq xo‘jaligi vazirligi tarkibiga kiruvchi ayrim tashkilotlarning boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (Y.Pardayev) vazirlik markaziy apparati shtatlar jadvaliga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini, shuningdek, tegishli tizim tashkilotlari rahbarlari bilan birgalikda ularga o‘tkazib berilayotgan yangi shtat birliklarini o‘rnatilgan tartibda ro‘yhatdan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

6. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (Sh.Xamidov) vazirlik markaziy apparati tuzilmasidagi o‘zgarishlardan kelib chiqib, xodimlar bilan mehnat munosabatlarini muvofiqlashtirsin.

7. Barcha tarkibiy bo‘linma rahbarlari amaldagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizomlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarini bir hafta muddatda Yuridik ta’minlash boshqarmasi (U.Burxanov) va Inson resurslarini rivojlantirish hamda boshqarish bo‘limi (Sh.Xamidov)ga kiritilishini ta’minlasin.

8. Agrosanoatni rivojlantirish agentligi, Agrar sohada to‘lovlar agentligi, “Biosifat” respublika markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari hamda Toshkent shahar qishloq xo‘jaligi boshqarmasi:

bir hafta muddatda shtatlar jadvaliga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini;

bir oy muddatda yangi tashkil etilayotgan bo‘linmalarning nizomlarini va lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta’minlasin.

9. Qishloq xo‘jaligi vazirining 2026-yil 22-maydagi 143-son buyrug‘ining ilovasi, 2026-yil 19-martdagi 82-son buyrug‘ining ilovasi, 2025-yil 16-iyuldagi 169-son buyrug‘ining 2-ilovasi hamda 2025-yil 27-oktabrdagi 261-son buyrug‘ining 3 va 4-ilovalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.


10. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari A.Qosimov zimmasiga yuklansin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI * DEVONXONA * ASLIGA TO‘G‘RI

**Vazir** **I.Abduraxmonov**

Qishloq xo‘jaligi vazirining
2026-yil 20-iyuldagi
188-son buyrug‘iga
2-ilova

# Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining TUZILMASI




**Izoh:** Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni - **46 shtat birligi**.
* Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.
Texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni belgilangan me’yorlarga muvofiq aniqlanadi.

**Qishloq xo'jaligi vazirining**
**2026-yil 20-iyuldagi**
**188-son buyrug'iga**
**2a-ilova**

# Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining lavozimlar kesimidagi shtat birliklari TARKIBI

| Lavozim nomlanishi | Shtat birliklari soni |
|---|---|
| Vazir yordamchisi | 1 |
| Bosh yuriskonsult | 1 |
| Birinchi bo‘lim bosh mutaxassisi | 1 |
| Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis | 1 |
| Hujjatlar va murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi | 1 |
| Fuqaro muhofazasi, mehnat muhofazasi va energiya menejmenti bo'yicha bosh mutaxassis | 1 |
| ***Moliya-iqtisod sho‘basi*** | |
| Sho‘basi boshlig‘i - Bosh hisobchi | 1 |
| Bosh mutaxassis | 2 |
| ***Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 2 |
| ***Yig‘ma axborot va statistik tahlil sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| **Vazirning birinchi o‘rinbosari** | 1 |
| ***Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish sho‘basi*** *(Paxta, g‘alla, texnik, moyli, dukkakli, ozuqa)* | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 2 |
| ***Zamonaviy sug‘orish agrotexnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha*** | |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***O'simliklar himoyasi, agrokimyo va biolaboratoriyalarni muvofiqlashtirish sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash bo‘yicha*** | |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| **Vazir o‘rinbosari** | 1 |
| ***Klasterlar, agro tadbirkorlik va koperatsiyalarni rivojlantirish sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Qishloq xo‘jaligi subyektlarini iqtisodiy tahlil qilish sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, sanoat korxonalari, agrologistikani va mahsulotlarini saqlash quvvatlarini rivojlantirish sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 2 |
| Yetakchi mutaxassis | 1 |
| ***Meva-uzumchilik, sabzavot, poliz, kartoshkachilikni va maqbul qishloq xo'jaligi amaliyotini rivojlantirish sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Pillachilik tarmog'ini rivojlantirish bo‘yicha*** | |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Investitsiyalar monitoringi va eksportni rivojlantirish bo‘yicha*** | |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| **Vazir o‘rinbosari** | 1 |
| ***Yer tuzish, yerdan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish va monitoringi sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |

| Lavozim nomlanishi | Shtat birliklari soni |
|---|---|
| Bosh mutaxassis | 1 |
| Yetakchi mutaxassis | 1 |
| ***Yer resurslarini raqamlashtirish sho‘basi*** | |
| Sho‘ba boshlig‘i | 1 |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Lalmi va yaylov yer uchastkalarini foydalanishga kiritish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha*** | |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklari hisobini yuritish bo‘yicha **** | |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Axborot kommunikatsiyalarni joriy etish va rakamlashtirish bo‘yicha*** | |
| Bosh mutaxassis | 1 |
| ***Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni:*** | **46** |


**Izoh:** Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni - 46 shtat birligi.

* Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

Texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni belgilangan me’yorlarga muvofiq aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi vazirining
2026-yil 20-iyuldagi
188-son buyrug‘iga
5-ilova

## Tumanlar (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limlarining NAMUNAVIY TUZILMASI




**Izoh:** Umumiy shtatlar soni – **1 052 ta shtat birligi.**
Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni – **4-9 shtat birligi.**

Texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni o‘rnatilgan me’yorlarga muvofiq aniqlanadi.

**Qishloq xo'jaligi vazirining**
**2026-yil 20-iyuldagi**
**188-son buyrug'iga**
**5a-ilova**

## Туманлар (Қувасой шаҳри) қишлоқ хўжалиги бўлимлари лавозимлар кесимидаги штат бирликларининг намунавий таркибий тузилмаси

| Т/р | Вилоят номи | Туманлар номи | Штат бирликлари сони | Бошлиқ ўринбосари | Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича бош мутахассис | Молиявий ва шартномавий муносабатлар масалалари бўйича бош мутахассис | Агротехнология бўйича бош мутахассис | Ер тузиш ва мониторинг шўъбаси / бўйича / бош мутахассис | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | Бўлим / Шўъба бошлиғи | Бош мутахассис | Етакчи мутахассис |
| **1** | ҚҚР | Амударё | **9** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 4 | 0 |
| **2** | ҚҚР | Беруний | **9** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 4 | 0 |
| **3** | ҚҚР | Бўзатов | **4** | 1 | 1 | 0 | 1 | 0 | 1 | 0 |
| **4** | ҚҚР | Тўрткўл | **9** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 4 | 0 |
| **5** | ҚҚР | Элликқалъа | **9** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 4 | 0 |
| **6** | ҚҚР | Хўжайли | **6** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 0 |
| **7** | ҚҚР | Шуманай | **7** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| **8** | ҚҚР | Мўйноқ | **4** | 1 | 1 | 0 | 1 | 0 | 1 | 0 |
| **9** | ҚҚР | Нукус | **7** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| **10** | ҚҚР | Тахтакўпир | **6** | 1 | 1 | 0 | 1 | 1 | 2 | 0 |
| **11** | ҚҚР | Тахиатош | **5** | 1 | 1 | 1 | 1 | 0 | 1 | 0 |
| **12** | ҚҚР | Қораўзак | **7** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 0 |
| **13** | ҚҚР | Қонликўл | **7** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| **14** | ҚҚР | Кегейли | **7** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 0 |
| **15** | ҚҚР | **Қўнғирот*** | **7** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 0 |
| **16** | ҚҚР | **Чимбой*** | **7** | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 0 |
| **ХАММАСИ:** | | | **110** | **16** | **16** | **13** | **16** | **13** | **33** | **3** |

**Изоҳ: *** 2025 йил 21 октябрдаги ПФ-186-сон Фармоннинг 4-иловасига мувофиқ 41 туман Қишлоқ хўжалиги бўлимлари тажриба-синов тариқасида туман ҳокимлигига бирктирилган.
Техник ва хизмат кўрсатувчи ходимлар сони белгиланган меъёрларга мувофиқ аниқланади.